

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ILG‘OR XORIJIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH TAJRIBALARDAN**

**Shohida Karimboyeva**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili kafedrasi assistenti*

**Резюме:** *O‘zbek tilini rusiyabon va turkiy auditoriyada o‘qitish prinsiplari, yondashuvlar, fanning mazmuni, vositalari, metod va usullari borasida metodistlarda yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Shuningdek, o‘quv rejalarining, shunga muvofiq auditoriya soatlari har o‘quv yilida har xil o‘zgarishga uchrayotganligi fanning o‘quv-metodik majmuasini sifat jihatidan emas, aksincha hajm jihatdan yangilashni taqozo qilmoqda. Mualliflar nazariy adabiyotlar va amaliy tajribalarni tahsil qilish, emperik ma’lumotlar yig‘ish usullari: kuzatish, suhbat, test, shuningdek, savolnomalar o‘tkazish, ma’lumotlarni qayta ishlash va pedagogik tajriba, ommaviy o‘rganish metodlari yordamida turkiy auditoriya uchun o‘zbek tilini o‘qitishning metodik ta’mintonini yangilash masalasiga urg‘u berishgan hamda o‘ziga xos metodikani ishlab chiqish bo‘yicha mavjud g‘oyalarni rivojlantirishgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *o‘zbek tili, o‘qitish metodikasi, ta’lim mazmuni, uzluksizlik, ta’lim vositalari.*

**Резюме:** *Не существует единственної точки зрения на методологиях в преподавании узбекского языка в русских и турецкой аудитории, принципах преподавания, подходов, содержания, методов и методов обучения. Кроме того, тот факт, что учебная программа и соответствующие часы аудитории различаются в каждом учебном году, которые зависят от улучшения продолжительности обучения-семодиического комплекса, но не от качества. Цель статьи состоит в том, чтобы ознакомить педагогические учебные заведения с текущим состоянием обучения узбекскому языку в турецкой аудитории, способы решения проблем, основных форм и методов обучения узбекскому языку на местные языки в соответствии с определенной методологией; проанализируйте лингвистические и словарные материалы, а также представляют первоначальные исследования концепции обучения узбекского языка в турецкой аудитории.*

**Ключевые слова:** *узбекский язык, методика обучения, содержание образования, преемственность, средства обучения.*

**Summary:** *There is no single point of view on methodologists in teaching Uzbek in Russian and Turkic audiences, the principles of teaching, the approaches, content, techniques and methods of teaching. In addition, the fact that the curriculum and the corresponding hours of the audience to varying in each academic year which depend on the improvement of the length of the educational-methodical complex, but not on quality. The purpose of the article is to familiarize the pedagogical educational institutions with the current state of teaching the Uzbek language in the Turkic audience, ways of solving problems, the main forms and methods of teaching the Uzbek language to native languages according to a certain methodology; analyse the linguistic vocabulary materials, as well as presenting the initial studies of the concept of teaching Uzbek to a Turkic audience*

**Key words:** *uzbek language, language acquisition, teaching methodology, content of education, continuity, teaching tools.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli tizimlashgan davrda turli sohalardagi axborot miqdorining ortib borayotganligi ta’lim jarayoniga ham yangidan-yangi zamонавиyl talablar qo‘ymoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagog kadrlarni

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

tayyorlash jarayonida yangi ma’lumotlarni zudlik bilan topish, o’zlashtirish, tahlil va sintez qilish, axborotdan samarali foydalanish, xulosalar chiqarish kabi malakalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga katta ehtiyoj sezilmoqda. Respublikamizda zamonaviy o‘quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta’lim standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. Ta’lim maskanlarida barcha fanlarni o‘qitishga yangicha yondashish kuzatilmoqda. Ayni paytda jamiyatda muhim rol o‘ynaydigan pedagogik kadrlarning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha chuqur bilim, malaka, kompetensiyalarga ega bo‘lishi, ilg‘or xorijiy tajriba va milliy pedagogik tajribaga tayanib ish ko‘rishi, ijodkorlik, tashabbuskorlik sifatlariga ega bo‘lishi talab qilinmoqda.

Quyida muammoli masalalarni dars jarayoniga olib kirish, talabalarda bu borada yetarli bilim, ko‘nikmalarini shakllantirish, bunda grafik organayzerlardan foydalanish kabi masalalarga to‘xtalmoqchimiz.

Chet el pedagogik tajribasini, xorijiy ta’lim va tarbiya nazariyalarini qiyosiy o‘rganish o‘z mamlakatidagi ta’lim tizimlarini takomillashtirish va yanada oqilona ta’lim tizimlarini yaratish uchun andoza bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy yoshlar innovatsion ta’lim sharoitida boy, keng qamrovli axborot texnologiyalari muhitida tahsil olmoqdalar. Bunday ta’lim tashabbuslar va yangiliklar negizida tug‘ilib, o‘quv-tarbiya jarayonining mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli yo‘nalishni boshlab beradi hamda umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Til va adabiyot ta’limiga xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bugungi ta’limning dolzarb masalasi sifatida kun tartibida turibdi. Ayniqsa, til ta’limida interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, amalda qo‘llash masalasi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. O‘qitishda ta’lim vositalari o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

O‘quv - uslubiy materiallar (O‘UM) - o‘quv materiallar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Grafikli organayzerlar tahsil oluvchilarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Grafik organayzerlar talabalarni ijodga, izlanishga chorlaydi. Tahsil oluvchilar ta’lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar, o‘zlarini mustaqil bilim oladilar, jamoaviy ravishda ta’limiy vazifalarni hal etadilar, o‘z-o‘zini baholaydilar.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Grafik organayzerlarga Insert, Klaster, T-jadval, Konseptual jadval, BBB, Venn diagrammasi, SWOT-tahlil, Nima uchun?, Baliq skeleti, Qanday?, Piramida, Nilufar guli va boshqalar kiradi.

Grafik organayzerlardan ta’lim jarayonida turli maqsadlarda foydalaniladi. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqeа va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatishning usul va vositalariga “Klaster”, “Toiflash jadvali”, “Insert”, “BBB jadvali” kabi grafik organayzerlar kiradi.

“T-jadvali”, “Venn diagrammasi” ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash maqsadida qo‘llaniladigan usul va vositalardir.

“Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Qanday?” tarkibiy-mantiqiy sxema - muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalahtirish usullari va vositalari.

Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalari o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning tahsil oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Qayta esga tushirishga yo‘naltirilmagan klaster (обратный класстер).*

Mazkur turdagи klasterdan mashg‘ulotning chaqiriq bosqichida talablarda mavzuni o‘rganishga doir qiziqishlarini oshirish va faollashtirish hamda ular bilan birgalikda mashg‘ulot mavzusini aniqlashtirish maqsadida foydalanish mumkin.

*Raqamlangan so‘zlar asosida tuzilgan klaster (класстер с нумерацией слов).*

Mazkur klaster mavzuni og‘zaki bayon etishda voqealar ketma-ketligini aniqlashtirishga zarururiyat paydo bo‘lganda foydalaniladi.

Toifa - xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi (umumiyl) alomat. Toiflash jadvali ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Bu grafik organayzer tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar “Klaster” asosida yangi o‘quv materiali bilan tanishgandan so‘ng kichik guruhlarda olingan ma’lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Insert” jadvali o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha tahsil oluvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

BBB jadvali – bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim.

Bu grafik organayzer mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Konseptual jadval o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Venn diagrammasi” metodi – bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruhi a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini ochib beradilar. “Nilufar gul” chizmasi – muammoni yechish vositasi. O‘zida nilufar gul ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta katta to‘rt burchaklar tashkil etadi. Bu usul tahsil oluvchilarda tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunuvchi “Qanday?” diagrammasi muammo to‘g‘risida umumiyligi tasavvurlarni olish imkonini beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat. U tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Qanday” grafik organayzeri ko‘pgina hollarda muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to‘g‘risida o‘ylanib qolmaslik maqsadida o‘tkaziladi. Asosan muammo, uni yechishda “buni qanday qilish kerak?”, “qanday” asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo‘ladi.

Eng muhimmi o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol metodlarni qo‘llashda talabalarning yosh, psixologik

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

xususiyatlari, dunyoqarash darjasи, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o‘qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi<sup>1</sup>.

Interfaol usulda ta’lim berilganda ta’lim beruvchining roli butunlay o‘zgaradi, jarayonni boshqarib turadi, kerakli ko‘rsatmalarни berib boradi, savol-javoblarni muhokama qilishni nazorati ostiga olib vaqtini taqsimlab ish ko‘radi. V.A.Suxomlinskiy so‘zi bilan aytganda “Eng exshi o‘qituvchi o‘zining o‘qituvchi ekanligini esidan chiqarib qo‘ymasligidir”<sup>2</sup>. O‘qituvchi o‘zini o‘quvchilardan “tepa” pog‘onada tutmasdan, balki birga yonma-yon turib butun borlig‘ini o‘quvchilarga berib muloqot qila olishi kerak.

Intellekt kartasi – namoyishlarni o‘tkazish, qaror qabul qilish, o‘z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma’lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o‘tkazish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta’lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo‘lib xizmat qiladi. Intellekt kartalarni darslarda qo‘llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan.

Bulardan tashqari, o‘zbek tili ta’limida barcha darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribaga ham tayanish imkoniyati mavjud. Masalan, “CALL” (Computer Assisted Language Learning)<sup>3</sup> – “Til ta’limiga ko‘maklashuvchi kompyuter resurslari” deb nomlangan laboratoriyyada turli mavzular uchun multimedia dasturlari ishlab chiqiladi. “Byki” va “Edmodo”<sup>4</sup> onlayn o‘qitish tizimlari – hozirgi vaqtga ommaviy tus olgan ijtimoiy tarmoqlar andozasi bo‘yicha dasturlashtirilgan ta’limiy tizimlar. O‘qituvchi talabalari bilan masofadan muloqot qiladi, til o‘rganish jarayonini boshqaradi, loyihalashtiradi, turli testlar o‘tkazadi. O‘rganuvchilar ham o‘zaro muloqot qila oladilar, vazifalarni bajaradilar, o‘qituvchining shaxsiy kutubxonasidan ham foydalana oladilar. “Global Simulation”<sup>5</sup> dasturi – turli tillar bo‘yicha keys stadilar majmuasi va boshqalar.

**Genially dasturi.** Bu dasturda Siz tezda taqdimot, animatsiya va infografika tayyorlashningiz mumkin. Sizga tayyor taqdimot beriladi. Siz unga o‘zingizga kerakli savollarni kiritasiz. Keyin keyingi sahifalariga darsga mos keluvchi va o‘quvchini rag‘batlantiruvchi so‘zlarni yozasiz.

Xullas, Oliy ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitishga oid mavzular keng

<sup>1</sup>Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.– Б. 11.

<sup>2</sup> Сухомлинский В.А. Инновацион педагогика в мире. Москва, 2000.с.

<sup>3</sup>Plonsky L., Ziegler N. The CALL-SLA interface: insights from a second-order synthesis// Language learning & technology. June 2016, Vol.20, -No. 2. -P. 17–37.

<sup>4</sup> <http://www.edmodo.com>

<sup>5</sup>Glenn S. Levine. Global Simulation: a student-centered, task-based format for intermediate foreign language courses// Foreign language annals. Spring, 2004. Vol. 37, -No. 1. –P. 26-35.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

yoritilishini taqozo etiladi. Zero, bo‘lajak mutaxassislar o‘z kasbiy faoliyatida tilshunoslikka oid bilimlaridan keng ko‘lamda foydalanishlari lozim bo‘ladi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi aynan til darslarida amalga oshiriladi. Bugungi kun har bir yetuk pedagog mutaxassis zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, ayniqsa, til o‘rgatishda zamonaviy sayt va dasturlardan foydanib yangi, qiziqarli metodlar bilan darslarni tashkil qilsa, internet bilan bog‘langan hozirgi yosh avlodni fanga qiziqtirib, darsdan ko‘zlangan maqsadlariga tez va oson yetisha oladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Авлиуақулов Н., Мусаева Н. Педагогик технология. –Т.: Тафаккур бўstonи, 2012.
2. Adilova S., Norimova G., Quvondiqova I., Mirazizov A., Yunusova Sh. O‘zbek tili (metodik qo‘llanma). –T.: TDPU, 2016.
3. Азизхўжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси нашриёти, 2006.
4. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
5. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).
6. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commony and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.